

This is not registered version of TotalDocConverter

Ertis Petrov bu qatnash qayvasini icha ya, xotinning peshonasidan o'pib, ishga o'tlanmoqchi bo'lib, ostonaga yetganda hayallab, cho'ntaklarini kovlashtira boshladi.

- Nimangni izlayapsan? - dedi xotini.

- Fikrim... mening fikrim... topilmayapti, - dedi Petrov kiyimlarini paypaslab, kissalarini kovlashda davom etarkan. - Qayoqqa tiqdim ekan-a!

- Anovi cho'ntagingdagi shalvirab turgan nima?

- Dastro'molcham, - ming'irladi Petrov. - Fikrim qayoqqa daf bo'ldiykin-a?

U barcha cho'ntaklarini ag'darib ko'rди, portfelini titkiladi, kiyimlarini qoqishtirib ko'rди - topolmadi.

- Yo'q, - dedi u xotiniga. - Sen bilmaysanmi, qayoqqa g'oyib bo'lganikim?

- Yaxshisi, hovliqmasdan, astoydil izlab ko'r.

Petrov yana cho'ntaklarini birin-ketin kovlashga tushdi. Afsuski, hech qaerda uning shaxsiy fikri yo'q edi.

- Shoshmay tur-chi, - deya xotini peshonasini tirishtirdi. - Oxirgi marta sen uni o'tgan yili, yanvar oyida eslagandek bo'luvding, shekilli. Korxonangda yillik reja tasdiqlanadigan kuni-chi?

- Yo'q, xotin, adashyapsan. Men hali aqldan ozganim yo'qki, yillik reja muhokamasiga shaxsiy fikrim bilan borsam!..

- Hmm... Ha, aytmoqchi! Keyin vazirlikka chaqirishuvdi-ku? Ehtimol, fikringni o'shanda obketgan bo'lma tag'in?

- Nimalar deyapsan, xotin? Vazirlikka kim ham o'z fikri bilan boradi, a? Shunday nufuzli joyda, odatda, o'zgalarning fikriga qo'shilasan, bas! Yo'q, u gal fikrimni obketmaganman.

- Unda qayoqqa gumdon bo'ladi? Aslida bormidi o'zi?

- Bor edi, bor edi, mana, endi yo'q.

- Yopiray! Savil qolgur fikring qaysi kavakka kirib ketdiykin, a?

Xotini chuqur o'yg'a toldi. Eri so'nggi paytlarda qaerlarga boruvdi, o'zi bilan o'z fikrini qachon obketuvdi?

- O, topdim! - deb qiyqirib yubordi xotini. - Esingdami, Bosh direktoringga tishini qayrab yurgan Simeonov degan shartaki xodimlarning bor edi-ku, o'shani ishdan bo'shatadigan kun esingdami? Fikringni o'sha kungi majlisga obketgansan. Yodingga tushdimi?

- Yodimda, - dedi Petrov bamaylixotir. - Lekin o'shanda bizdan majlis qarorini qo'llab-quvvatlashgina so'ralgan, xolos. Shaxsiy fikr hech kimni qiziqirtmagan.

Xotini javonini ochib ko'rди.

- Balki sen uni muhim hujjatlarning saqlanadigan g'aladonga solib qo'ygandirsan?

- Qo'ygandim. So'ng bir marta olish uchun ochib... oldimmi yo yana solib qo'ydimmi, esimda yo'q.

- Menga qara, shu tobda shaxsiy fikring nega kerak bo'p qoldi? Nega yopishib olding? Axir, ishga ketyapsan-ku? So'rab qolsalar, "uyda qopti", deb aytarsan-da.

- Xo'p, aytarman. Mabodo, uni mutlaqo yo'qotib qo'ygan bo'lsam-chi?

- Qiyomat qo'pmas! Uningsiz ham binoyidek yashab kelyapsan-ku!

- To'g'riku-ya... Har holda, doim uningsiz yashash ham yaxshimas. Biror nozik joyda kerak bo'p qolsa, nima degan odam bo'laman?

- Kerak bo'lmaydi-yov...

- Yo'q, har holda, har holda... Biror joyda bordir u? Hech bo'lmasa, bir qur qarab ko'raylik-chi!..

Xotini shiddat bilan kiyim-kechak, ko'rpa-to'shaklarni ag'darishga tushib ketdi...

- Mana u! - dedi xotini terlarini arta-arta. - Sen uni eski paltongning cho'ntagida qoldiribsan. Bu paltoni, bilasanmi, ikki yil oldin chiqitga chiqarib tashlovding.

- To'ppa-to'g'ri, shaxsiy fikrim! - quvonib ketdi Petrov. - Ikki yil oldin opchiqqan ekanman-u, yana o'sha joyida paqqos unutib qoldiribman-a?

- Men paltoni yuvishga topshirvorgandim-ov. Bu yoqqa ol-chi, kirmoshinda fikring ivib, titilib ketmadimikim? - Shunday deb xotini aylantirib-aylantirib, silkib-silkib, puflab-puflab eriga fikrini qaytarib berdi. - Yo'q, jin ham urmabdi. Aksincha, xuddi yangidek.

- Albatta-da, men undan deyarli foydalanmadim, axir.

- To'g'ri qilasan. Menam paltongni bolaxonaga chiqarib tashlamoqchiydim. Baribir kiyimaysan-ku!

- Menda yangisi bor-ku. Pochapo'stin.

- Endi fikringni boshqa, ko'rinarli joyga qo'y. Qutichagami, hujjatlarningning orasigami? Yaxshisi, eng ishonchlisi - omonat daftarchangning qatiga joylab qo'ya qolganing durust.

- Shunday qilaman!

Petrov shaxsiy fikrini daftarcha qatiga joyladi-yu, xotining peshonasidan o'pib, mamnun holda eshikdan chiqdi.